



## AKTUAR MOLIYA VA BUXGALTERIYA HISOBI ILMIY JURNALI

Vol. 5 Issue 03 | pp. 396-403 | ISSN: 2181-1865

Available online <https://finance.tsue.uz/index.php/afa>

### KREATIV IQTISODIYOT: NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI, RIVOJLANISH BOSQICHLARI VA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR



**Qurbonova Zebiniso Azimovna**

Osiyo Xalqaro Universiteti tayanch doktoranti

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada kreativ iqtisodiyot tushunchasining mazmuni, tarixiy rivojlanish bosqichlari va zamonaviy iqtisodiy sharoitdagi o'zgarishlar tahlil qilinadi. Tadqiqot metodologiyasi sifatida adabiyotlarni tahlil qilish, qonunchilik hujjatlari va ilgari surilgan nazariy yondashuvlar asosida chuqur konseptual tahlil olib borilgan. Natijalarga ko'ra, kreativ iqtisodiyot – bu ijodkorlik, innovatsiya va intellektual mulkka asoslangan iqtisodiy faoliyat bo'lib, u an'anaviy iqtisodiy tarmoqlardan sezilarli darajada farq qiladi. Tadqiqotda John Howkins, Richard Florida kabi olimlarning ta'riflari, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi "Kreativ iqtisodiyot to'g'risida"gi qonunchilik hujjatlari asosida kreativ iqtisodiyotning asosiy omillari, rivojlanish strategiyalari va ijtimoiy-iktisodiy ahamiyati bayon etilgan. Maqolaning asosiy natijalari shuni ko'rsatadiki, kreativ iqtisodiyot nafaqat iqtisodiy o'sishni ta'minlash, balki madaniy xilma-xillik va barqaror rivojlanish tamoyillarini amalga oshirishda ham muhim omil hisoblanadi. Shu bilan birga, raqamli texnologiyalar va global bozor tendensiyalari kreativ iqtisodiyotning dinamik rivojlanishiga va yangi imkoniyatlar yaratishiga xizmat qilmoqda.

**Kalit so'zlar:** kreativ iqtisodiyot, ijodkorlik, intellektual mulk, innovatsiya, kreativ industriya, barqaror rivojlanish.

#### **Abstract**

This article analyzes the content of the concept of creative economy, stages of historical development and changes in modern economic conditions. As a research methodology, an in-depth conceptual analysis was conducted based on literature analysis, legislative documents and theoretical approaches. According to the results, the creative economy is an economic activity based on creativity, innovation and intellectual property, which is significantly different from traditional economic sectors. The study describes the main factors, development strategies and socio-economic significance of the creative economy based on the definitions of scientists such as John Howkins, Richard Florida, as well as the legislative documents of the Republic of Uzbekistan "On the Creative Economy". The main results of the article show that the creative economy is an important factor not only in ensuring economic growth, but also in implementing the principles of social inclusion, cultural diversity and sustainable development. At the same time, digital technologies and global market trends contribute to the dynamic development of the creative economy and create new opportunities.

**Keywords:** creative economy, creativity, intellectual property, innovation, creative industry, sustainable development.

### Аннотация

В статье анализируется содержание понятия креативной экономики, этапы ее исторического развития, а также изменения современных экономических условий. В качестве методологии исследования был проведен углубленный концептуальный анализ на основе обзора литературы, законодательных документов и передовых теоретических подходов. Согласно результатам, креативная экономика — это экономическая деятельность, основанная на творчестве, инновациях и интеллектуальной собственности, которая существенно отличается от традиционных секторов экономики. В исследовании описываются основные факторы, стратегии развития и социально-экономическое значение креативной экономики, опираясь на определения таких ученых, как Джон Хоукинс и Ричард Флорида, а также законодательные документы Республики Узбекистан «О креативной экономике». Основные выводы статьи показывают, что креативная экономика является важным фактором не только обеспечения экономического роста, но и реализации принципов социальной инклюзии, культурного разнообразия и устойчивого развития. В то же время цифровые технологии и мировые рыночные тенденции способствуют динамичному развитию креативной экономики и создают новые возможности.

**Ключевые слова:** креативная экономика, креативность, интеллектуальная собственность, инновации, креативная индустрия, устойчивое развитие.

Bugungi kunda iqtisodiyotning turli sohalari dinamik o'zgarishlar jarayonidan o'tmoqda. An'anaviy ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish tarmoqlari bilan bir qatorda, kreativ iqtisodiyot – ya'ni ijodiy g'oyalar, intellektual mulk va innovatsiyaga asoslangan faoliyat – global iqtisodiy taraqqiyot va madaniy merosni asrab-avaylashda yetakchi rol o'ynaydi.

Kreativ iqtisodiyot atamasi "Creatio" (lotincha – yaratish) so'zidan kelib chiqqan bo'lib, 1950-yillarda psixologiya fanida birinchi marta qo'llanila boshlandi. Keyinchalik, 2000-yilda Business Week jurnalida ushbu tushuncha ommaviy e'tiborga sazovor bo'ldi va John Howkins kabi olimlar kreativ iqtisodiyotning nazariy asoslarini ishlab chiqishda katta hissa qo'shdilar.<sup>1</sup>

Kreativ iqtisodiyot tushunchasiga bugungi kunga qadar turli iqtisodchi va tadqiqotchilar turlicha ta'riflab kelishgan. Xususan, John Howkins (2001) – "Kreativ iqtisodiyot – bu ijodiy g'oyalar, bilim va madaniyatga asoslangan iqtisodiyot bo'lib, unda intellektual mulk asosiy boylik hisoblanadi"<sup>2</sup> deb ta'rif bergan. John Howkins kreativ iqtisodiyotning natijalarini kuzatishga harakat qilib, patentlar, mualliflik huquqlari va savdo belgilari ko'rinishida intellektual mulkni yaratadigan 15 ta kreativ industriya sohaslarini ajratadi. Howkins ta'kidlashicha, bugungi kunda texnologik va innovatsion taraqqiyot tufayli ijodiy g'oyalar, intellektual mulk va mahorat iqtisodiyotning asosiy

<sup>1</sup> <https://yuz.uz/uz/news/kreativ-iqtisodiyot-mohiyati-va-uni-rivojlantirishning-jahon-tajribasi>

<sup>2</sup> Howkins, J. (2001). *The Creative Economy: How People Make Money from Ideas*. London: Penguin. pp. (88–117)

harakatlantiruvchi kuchlariga aylanmoqda. U ijodiy fikrlashni rivojlantirish va intellektual huquqlarni himoya qilish orqali davlat va xususiy sektor uchun ham yangi imkoniyatlar yaratilishini qayd etadi.

UNCTAD (United Nations Conference on Trade and Development) ta'rifiga ko'ra "Kreativ iqtisod - iqtisodiy o'sish va rivojlanishni potentsial keltirib chiqaradigan ijodiy aktivlarga asoslangan rivojlanayotgan konsepsiyadir."<sup>3</sup>

O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi, xususan "Kreativ iqtisodiyot to'g'risida"gi qonuni, ushbu sohaning iqtisodiy va madaniy ahamiyatini tan olishga qaratilgan bo'lib, davlat va xususiy sektor hamkorligi orqali kreativ iqtisodiyotning rivojlanishini qo'llab-quvvatlaydi. Shuningdek, raqamli texnologiyalar, internet va ijtimoiy tarmoqlar kreativ iqtisodiyotning global bozor bilan uyg'unlashuvi va yangi imkoniyatlar yaratishida asosiy omilga aylandi.

Maqolaning asosiy maqsadi kreativ iqtisodiyot tushunchasining nazariy-uslubiy asoslarini, rivojlanish bosqichlarini va zamonaviy yondashuvlarini tizimli tahlil qilishdan iboratdir. Tadqiqotda kreativ iqtisodiyotning ajralib turadigan xususiyatlari, uning iqtisodiy samaradorlikka qo'shadigan hissasi va ijtimoiy- madaniy ta'sirlarining chuqur tahlili olib borilgan. Shu bilan birga, maqolada kreativ industriya sohalari va ularning amaliyoti bo'yicha solishtirma jadval va nazariy yondashuvlar ham yoritilgan.

Tadqiqot metodologiyasi sifatida sifatli adabiyot tahlili (literature review) qo'llanildi. Ushbu yondashuv yordamida kreativ iqtisodiyot tushunchasiga oid turli nazariy yondashuvlar, konseptual modellar va qonunchilik hujjatlari o'rganildi. Tadqiqot quyidagi bosqichlardan iborat:

1. *Nazariy materiallarni yig'ish*: John Howkins, Richard Florida kabi olimlar va UNCTAD tashkiloti tomonidan ilgari surilgan nazariy qarashlar, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi "Kreativ iqtisodiyot to'g'risida"gi qonunchilik hujjatlari asosiy ma'lumot manbai sifatida tanlandi.
2. *Konseptual tahlil*: Yig'ilgan adabiyotlar va qonunchilik hujjatlari mazmuni va mohiyatiga chuqur tahlil o'tkazildi. Tadqiqotda kreativ iqtisodiyotning asosiy omillari, innovatsiya, intellektual mulk va ijodkorlik tushunchalari tahlil qilindi.
3. *Solishtirma yondashuv*: Kreativ iqtisodiyotning an'anaviy iqtisodiyot tarmoqlaridan farqlanishi, xususan resurslar, mahsulot va xizmat xususiyatlari, bozor segmentlari hamda innovatsion jarayonlar solishtirildi. Jadval ko'rinishida asosiy farqlar va o'ziga xosliklar bayon etildi.
4. *Ilmiy fikrlarni sintezi*: Tadqiqot natijalari asosida kreativ iqtisodiyotning iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy ahamiyati hamda uning barqaror rivojlanishi uchun talab qilinadigan omillar aniqlanib, sintez qilingan.

Ushbu metodologiya orqali kreativ iqtisodiyot tushunchasi va uning rivojlanish bosqichlari aniq va izchil yoritildi. Tadqiqotda tahlil qilingan nazariy yondashuvlar va qonunchilik asoslari, shuningdek, kreativ industriya sohalari bo'yicha empirik ma'lumotlar orqali olingan natijalar, maqolaning keyingi bo'limlarida batafsil bayon etiladi.

<sup>3</sup> Creative Economy Report (UNCTAD and UNDP, 2008).

Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, kreativ iqtisodiyot tushunchasi bir qator asosiy xususiyatlar va rivojlanish bosqichlariga ega.

Kreativ iqtisodiyot – bu ijodiy g'oyalar, innovatsiya, intellektual mulk va madaniy merosga asoslangan iqtisodiy faoliyat bo'lib, u quyidagi omillarga urg'u beradi:

- Ijodkorlik va innovatsiya: John Howkinsning ta'rifiga ko'ra, kreativ iqtisodiyot intellektual resurslar, patentlar, mualliflik huquqlari va savdo belgilariga asoslanadi. Bu esa yangi mahsulotlar, xizmatlar va tajriba asosida iqtisodiy qiymat yaratish imkoniyatini beradi.
- Madaniy va estetik qiymat: Ijodiy mahsulotlar ko'pincha ma'naviy va estetik qiymatga ega bo'lib, ularni yaratishda san'at, dizayn va madaniy omillar muhim rol o'ynaydi.
- Raqamli texnologiyalar va global bozor: Internet, ijtimoiy tarmoqlar va raqamli platformalar kreativ mahsulotlarni tez tarqatish, ularga global bozor talabini yaratishda asosiy vosita sifatida qaraladi.

Kreativ iqtisodiyotning rivojlanishi ikki asosiy bosqichga ajratilishi mumkin:

Ilk bosqich - nazariy asoslar va an'anaviy san'at rivojlangan davr. Ilk bosqichda kreativ iqtisodiyot tushunchasi asosan san'at, hunarmandchilik va madaniy merosni ifodalaydi. Ushbu davrda ijodiy faoliyat ko'proq shaxsiy va madaniy kontekstda baholangan. XX asrning ikkinchi yarmida film, teatr, musiqa va reklama kabi sohalar "madaniy industriyalar" sifatida aniqroq ajralib, tijratlashtirish jarayonlari boshlangan.

Zamonaviy bosqich - intellektual mulk va raqamli integratsiya davri. XXI asr boshlarida intellektual mulk va raqamli texnologiyalar kreativ iqtisodiyotning asosiy omiliga aylandi. UNCTAD va boshqa xalqaro tashkilotlar tomonidan ilgari surilgan nazariy yondashuvlar shuni ko'rsatadiki, kreativ iqtisodiyot innovatsion siyosat, intellektual mulkni himoya qilish va raqamli texnologiyalar orqali yangi iqtisodiy imkoniyatlar yaratadi. Globalizatsiya va raqamli inqilob kreativ iqtisodiyotning tez kengayishiga, yangi bozor segmentlari shakllanishiga va ijtimoiy-iqtisodiy muhitning diversifikatsiyasiga olib keldi.

Tahlil natijalari asosida kreativ iqtisodiyot va an'anaviy iqtisodiyot tarmoqlari o'rtasidagi farqlar quyidagicha ajratildi:

1.1 Jadval

### Kreativ iqtisodiyotning an'anaviy iqtisodiyot tarmoqlaridan farqli jihatlari tahlili<sup>4</sup>

Mezon	Kreativ iqtisodiyot	An'anaviy iqtisodiyot tarmoqlari
Asosiy resurs	ijodiy fikr, intellektual mulk, san'at, dizayn, innovatsiya; inson salohiyati, mahorati va original g'oyalar.	xomashyo, asbob-uskunalar, tayanch kapital; sanoat texnologiyalari va mehnat resurslari.
Mahsulot/xizmat xususiyati	ma'naviy va estetik qiymati yuqori bo'lgan	ko'proq moddiy shakldagi mahsulotlar (masalan,

<sup>4</sup> Muallif tomonidan izlanishlar natijasida yaratilgan

	mahsulotlar (film, musiqa, dizayn, hunarmandchilik, IT, o'yinlar); intellektual mulk ustun turadi qiladi.	qishloq xo'jalik mahsulotlari, texnika, qurilish materiallari); xizmatlar (transport, savdo va h.k.) asosan o'rnini bosadigan xususiyatga ega.
Qiymat yaratuvchi omil	yaratuvchanlik, mualliflik, brend, dizayn, content; innovatsiya va yangi g'oyalar tez yangilanadi.	sanoat jarayonlari, arzon xomashyo yoki kam mehnat xarajatlari.
Bozor segmenti va iste'mol	iste'molchining didi, moda, brending, tendensiyalar tez o'zgaradi; ko'pincha global yoki onlayn-platfomalarga bog'liq.	ko'proq barqaror, aniq segmentlar; mahalliy yoki xalqaro bozor, lekin iste'mol tuzilishi kamroq o'zgaruvchan.
Raqamli texnologiyalar bilan integratsiya	internet, ijtimoiy tarmoqlar, digital marketing, platformalar asosida faoliyat kengayadi; texnologiya mahsulotga nafaqat tashqi qo'shimcha, balki uning ichki qismiga aylangan.	yordamchi vosita sifatida foydalaniladi, lekin asosiy mahsulot yoki xizmat ishlab chiqarish jarayonlari texnologik modernizatsiyaga qaratilgan bo'lishi mumkin.
Inson kapitaliga bo'lgan talab	yaratish, dizayn, marketing, mualliflik huquqi, startap menejmenti, IT ko'nikmalari muhim o'rin tutadi; yumshoq ko'nikmalar (soft skills) – ijodiy fikr, kommunikatsiya, moslashuvchanlik zarur.	sanoat ishlab chiqarishida texnik malaka, hunarmandchilikda an'anaviy tajriba, xizmat ko'rsatish sohasida xodimlarning professionalligi zarur.

Yuqoridagi jadval shuni ko'rsatadiki, kreativ iqtisodiyot innovatsion g'oyalar, intellektual mulk va raqamli texnologiyalar orqali iqtisodiy qiymat yaratishda yuqori qo'shilgan qiymatga ega bo'lib, bu esa uni an'anaviy iqtisodiy tarmoqlardan farq qiluvchi asosiy jihat sifatida ko'rsatadi.

Kreativ industriya – bu kreativ iqtisodiyot doirasida, asosan ijodiy sohalarda faoliyat yuritadigan subyektlarning yig'indisidir. Tadqiqot natijalariga ko'ra, kreativ industriya adabiy ijod, amaliy san'at va hunarmandchilik, arxitektura va urbanistika,

audiovizual san'at, ijrochilik san'ati va konsert-tomosha faoliyati, moda va dizayn, nashriyot va matbaa, raqamli texnologiyalar, reklama va pr sohalarini o'z ichiga oladi. Bu sohalar kreativ iqtisodiyotning iqtisodiy va madaniy o'sishida muhim rol o'ynab, innovatsion yechimlar orqali yangi ish o'rinlari va global raqobatbardoshlikni ta'minlaydi.

Tahlil natijalari asosida kreativ iqtisodiyot tushunchasi zamonaviy iqtisodiyotni shakllantiruvchi asosiy drayverlardan biri sifatida ajralib turadi. Quyida ushbu natijalar va ularning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati bo'yicha asosiy fikrlar muhokama qilinadi.

Kreativ iqtisodiyotning markaziy jihati sifatida innovatsiya va ijodkorlikni ajratish mumkin. John Howkinsning fikricha, intellektual mulk va ijodiy g'oyalar zamonaviy iqtisodiy jarayonlarni yangi bosqichga olib chiqadi. Shu bilan birga, intellektual resurslardan samarali foydalanish, patentlar va mualliflik huquqlarini himoya qilish orqali innovatsiyalar iqtisodiy o'sishning kuchayishiga hissa qo'shadi. Zamonaviy texnologiyalar, ayniqsa, raqamli transformatsiya jarayoni, kreativ iqtisodiyot subyektlariga global bozor bilan integratsiyalashish va mahsulotlarini tez tarqatish imkonini beradi.

Kreativ iqtisodiyot nafaqat iqtisodiy samaradorlikni oshirish, balki ijtimoiy inklyuziya, madaniy xilma-xillik va estetik qadriyatlarini mustahkamlashga ham xizmat qiladi. Madaniyat va san'at orqali yaratilgan mahsulotlar jamiyatda yuqori estetik va madaniy qiymatni shakllantiradi, bu esa milliy identitet va ijtimoiy barkamollikni qo'llab-quvvatlaydi. Shu nuqtai nazardan, kreativ iqtisodiyotning rivojlanishi nafaqat iqtisodiy, balki madaniy sohada ham o'zining ijobiy ta'sirini namoyon etadi.

O'zbekiston Respublikasi "Kreativ iqtisodiyot to'g'risida"gi qonuni va boshqa qonunchilik hujjatlari asosida kreativ iqtisodiyot subyektlarining huquqlari va manfaatlari himoyalanoqda. Davlat tomonidan yaratilgan qonuniy muhit ijodiy jarayonlarning shaffof va erkin kechishiga, shuningdek, innovatsiyalarni rag'batlantirishga yo'naltirilgan. Bunday huquqiy asoslar kreativ iqtisodiyotning barqaror rivojlanishi uchun zarur bo'lib, uning iqtisodiy va ijtimoiy salohiyatini yanada oshiradi.

Internet va raqamli texnologiyalar kreativ iqtisodiyotning rivojlanishida hal qiluvchi omilga aylandi. Raqamli platformalar, masalan, YouTube, Spotify, Netflix, Kickstarter va Patreon kabi vositalar ijodiy mahsulotlarni global miqyosda tijoratlashtirish, ularni monetizatsiya qilish va keng auditoriyaga yetkazish imkonini beradi. Ushbu transformatsiya kreativ iqtisodiyotning nafaqat yangi bozor segmentlarini shakllantirish, balki innovatsion yechimlar orqali iqtisodiy samaradorlikni oshirishda muhim rol o'ynashini ta'kidlaydi.

Zamonaviy iqtisodiy jarayonlarda barqaror rivojlanish tamoyillari asosiy o'rin tutadi. Kreativ iqtisodiyotning ijtimoiy va ekologik mas'uliyatni hisobga olgan holda rivojlanishi, "yashil" texnologiyalar va barqaror dizayn tamoyillarini qo'llash orqali an'anaviy ishlab chiqarish jarayonlaridan farq qiladi. Ushbu yondashuv ijtimoiy farovonlik, ekologik barqarorlik va milliy madaniyatni asrash kabi ko'p qirrali natijalarga erishishda muhim vositadir.

Maqolada kreativ iqtisodiyot tushunchasi nazariy-uslubiy asoslari, rivojlanish bosqichlari va uning zamonaviy iqtisodiyotdagi ahamiyati tahlil qilindi. Asosiy xulosalar quyidagicha ifodalansa bo'ladi:

- Ijodkorlik va intellektual mulk kreativ iqtisodiyotning asosiy yo'nalishlarini tashkil etadi. Bu omillar innovatsion mahsulotlar yaratishda va iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi.

- Raqamli texnologiyalar va internet transformatsiyasi kreativ iqtisodiyotning global bozor bilan uyg'unlashishida muhim rol o'ynaydi. Bu esa yangi bozor segmentlarini shakllantirish va ijtimoiy-madaniy qiymatlarni oshirish imkoniyatini beradi.

- Kreativ industriya sohalari – adabiy ijod, amaliy san'at, arxitektura, audiovizual san'at, moda va raqamli texnologiyalar – o'ziga xos xususiyatlari bilan an'anaviy iqtisodiyot tarmoqlaridan farq qiladi. Ular yuqori qo'shilgan qiymatga ega bo'lib, ijtimoiy-madaniy rivojlanish va global raqobatbardoshlikni oshirishga xizmat qiladi.

- Davlat siyosati va huquqiy asoslar kreativ iqtisodiyotning barqaror rivojlanishi uchun muhim bo'lib, ijodiy subyektlarning huquqlarini himoya qilish va innovatsiyalarni rag'batlantirishga qaratilgan.

Shu asosda, kelgusida kreativ iqtisodiyotning yanada rivojlanishi uchun quyidagi takliflar ilgari surilishi mumkin:

1. Qonunchilikni takomillashtirish: Intellektual mulkni himoya qilish, mualliflik huquqlari va innovatsion mahsulotlarni tijratlashtirishni qo'llab-quvvatlovchi huquqiy me'yorlar mustahkamlanishi zarur.
2. Raqamli infratuzilmani rivojlantirish: Internet va raqamli platformalar orqali kreativ mahsulotlarni global bozorga yetkazish imkoniyatlarini oshirish maqsadida texnologik infratuzilma yanada kuchaytirilishi lozim.
3. Ta'lim va malaka oshirish: Ijodkorlik va innovatsion yondashuvlarni rivojlantirish uchun ta'lim tizimi hamda kasbiy malaka oshirish dasturlarini kengaytirish muhim.
4. Davlat-xususiy sektor hamkorligini kuchaytirish: Kreativ iqtisodiyot subyektlari o'rtasida klasterlashuv va hamkorlikni yanada rivojlantirish orqali innovatsion mahsulotlar yaratish jarayonlarini qo'llab-quvvatlash lozim.
5. Madaniy va ekologik mas'uliyat: Ijtimoiy inklyuziya, madaniy xilma-xillik va ekologik barqarorlikni hisobga olgan holda kreativ iqtisodiyot rivojlanish strategiyalari ishlab chiqilishi zarur.

Ushbu natijalar va takliflar kreativ iqtisodiyotning nafaqat iqtisodiy, balki madaniy va ijtimoiy rivojlanishdagi o'rnini yanada mustahkamlashga xizmat qiladi. Kelgusida ushbu soha bo'yicha qo'shimcha empirik tadqiqotlar olib borish, innovatsion mahsulotlar yaratish jarayonlarini chuqurroq tahlil etish va davlat siyosatining kreativ iqtisodiyotga qo'shadigan hissasini aniqlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Kreativ iqtisodiyot zamonaviy iqtisodiyotning asosiy omillaridan biri sifatida nafaqat iqtisodiy samaradorlikni, balki madaniy merosni asrab-avaylash, ijtimoiy inklyuziya va barqaror rivojlanish tamoyillarini amalga oshirishda ham katta ahamiyatga ega. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, intellektual mulk, ijodkorlik va raqamli texnologiyalar orqali yaratilayotgan mahsulotlar va xizmatlar global bozor sharoitida yangi innovatsion yondashuvlar va iqtisodiy o'sish imkoniyatlarini kengaytirmoqda. Shu nuqtai nazardan, davlat, ilmiy jamoatchilik va xususiy sektor hamkorligi asosida kreativ

iqtisodiyotning rivojlanishi kelajak iqtisodiy taraqqiyotning poydevorini tashkil etishi kutilmoqda.

Ushbu maqola orqali kreativ iqtisodiyot nazariyasi va amaliyoti o'rtasidagi aloqalarni aniqlash, uning rivojlanish bosqichlarini tizimli ravishda tahlil qilish va kelgusidagi tadqiqotlar uchun yangi istiqbollarni belgilash maqsadida ilmiy asos yaratilgan. Kelgusida ushbu yo'nalishda olib boriladigan tadqiqotlar kreativ iqtisodiyotning yanada keng qamrovli tahlilini, shuningdek, innovatsion mahsulotlar va xizmatlar yaratish jarayonlarini chuqurroq o'rganish imkoniyatini beradi.

### Adabiyotlar

1. Howkins, J. (2001). *The Creative Economy: How People Make Money from Ideas*. London: Penguin. pp. (88–117)
2. Creative Economy Report (UNCTAD and UNDP, 2008).
3. O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 03.10.2024 yildagi O'RQ-970-son
4. Florida, R. (2002). *The Rise of the Creative Class: And How It's Transforming Work, Leisure, Community and Everyday Life*. New York: Basic Books.
5. Landry, C. (2000). *The Creative City: A Toolkit for Urban Innovators*.
6. <sup>1</sup> Peter Drucker, 'The Landmarks of Tomorrow', 1959; and Daniel Bell, 'The Coming of Post-Industrial Society, 1973.
7. Creative Industries Mapping, Documents 2001
8. Kurbonova Zebiniso Azimovna (2024). CREATIVE TOURISM IN UZBEKISTAN: OPPORTUNITIES AND CHALLENGES FOR DEVELOPMENT. *Raqamli iqtisodiyot (Цифровая экономика)*, (8), 613-621.
9. Kurbonova, Z. A., & Nuriddinov, O. B. (2024). *CULTURAL TOURISM: EXPLORING THE ROLE OF TOUR OPERATORS IN PRESERVING AND PROMOTING LOCAL CULTURES AND HERITAGE*. *Лучшие интеллектуальные исследования*, 20 (3), 166–170.
10. <https://yuz.uz/uz/news/kreativ-iqtisodiyot-mohiyati-va-uni-rivojlantirishning-jahon-tajribasi>

Copyright © 2025 by the authors. This work is licensed under a Creative Commons Attribution-4.0 International License (CC - BY 4.0)

